

KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING IQTISODIY YO'LLARI

Achilova Ramziya A'zamovna ¹

¹ Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya kafedrasi o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:02.05.2025

Revised: 03.05.2025

Accepted:04.05.2025

KALIT SO'ZLAR::

kambag'allik, iqtisodiy
rivojlanish, bandlik,
tadbirkorlik, ijtimoiy
siyosat, daromadlar
tengsizligi, soliq
imtiyozlari, ta'lim, kasb-
hunar, barqaror taraqqiyot.

Mazkur maqolada kambag'allikni bartaraf etishning iqtisodiy yo'llari yoritilgan. Unda kambag'allik tushunchasining mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, shuningdek, uni kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan samarali iqtisodiy mexanizmlar ko'rib chiqiladi. Jumladan, bandlikni oshirish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, soliq imtiyozlari, ta'lim va kasb-hunar tizimini takomillashtirish kabi usullarning roli tahlil qilingan. Maqola natijalarida kambag'allikka qarshi kurashda kompleks yondashuv muhimligi ta'kidlanadi. Ushbu maqola iqtisodiy siyosat yurituvchilari, olimlar va tadqiqotchilar uchun foydali manba bo'la oladi.

KIRISH. Kambag'allikni bartaraf etish uchun Xitoy davlati tajribasini qo'llaganimiz maqsadga muvofiq nazarimizda. Chunki ushbu yo'nalishlar O'zbekiston sharoiti uchun ancha mos tushadi. Shuningdek, sohalarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy faoliyati ikki yo'nalishda tashkil etilgan:

- Ishsizlik darajasi va davomiyligini tartibga solish;
- Undan zarar ko'rgan odamlarni ijtimoiy himoya qilish.

Birinchi yo'nalishda davlat quyidagicha harakat qiladi: ishsizlarning umumiy massasini toifalar bo'yicha tuziladi, so'ngra qo'llab-quvvatlash ishsizlarning har bir toifasining xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Zamonaviy iqtisodiyotda bandlikni oshirishning asosiy usullari quyidagicha bo'lishi mumkin;

Aholining o'z-o'zini ish bilan ta'minlashining kuchli vositasi bo'lgan kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan shart-sharoitlar yaratish. Sharoitlarni yaratish deganda

xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligini himoya qilishni kafolatlaydigan tegishli qonun hujjatlarini shakllantirish, boshlang'ich tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar tashkil etish, ularni bepul o'qitish va hk.;

Davlat o'z ixtisosini o'zgartirmoqchi yoki malakasini oshirmoqchi bo'lganlar kadrlarni qayta tayyorlash to'g'risida ko'rinarli ishlar amalga oshirish;

Davlat aholiga bo'sh ish o'rinlari mavjudligi to'g'risida ma'lumot beradi va shu bilan yangi ish izlashga sarflanadigan vaqtni qisqartiradi;

Ishini yo'qotgan pensiya yoshiga yetgan odamlar uchun davlat ularning erta pensiyalarini tashkil qilishi mumkin. Ishsizlarga ko'rsatiladigan davlat ijtimoiy yordami maqsadli bo'lishi va murojaat etuvchining ishsizlarning qaysi sinfiga mansubligiga qarab taqsimlanishi kerak. Masalan, ixtiyoriy ishsizni olaylik, ya'ni, unga ish topish uchun davlatning barcha harakatlariga qaramay, bekorchilikni ongli ravishda tanlov qilgan kishi. Shubhasiz, bunday kontingentni saqlab qolish davlat uchun juda og'ir, shuning uchun ishsizlik nafaqalarini ma'lum bir muddat keyingi regressiya (ya'ni kamaytirish) bilan tayinlash maqsadga muvofiqdir. Bunday chora odamlarni ish qidirishni yanada rag'batlantiradi. Ayniqsa aholi turmush darjasi, kambag'allik darajasi qanaqa, aholi yashash sharoitlari mutassadilar tomonidan to'liq va aniq o'rganilib chiqilishi kerak. Kambag'al aholi muammolari o'rganilib ularning mavjud imkoniyatlariga baho bergan holda bandlikka jalb qilish lozim. Barcha sohalarda mavjud rezervlarni to'liq ishga solib, qo'shimcha iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Aholi uchun birlamchi oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli bo'lishini ta'minlash, narx oshishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarning oldini olish lozim. Sanoat sohasida ham qo'shimcha rezervlar mavjud. Ayniqsa, iqtisodiyotda ustuvor yo'nalish bo'lgan kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal sohaslarida "sanoat zanjirlarini"ni uzaytirish kerak. Xizmatlar sohasida ham ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Hududlarda servis shoxobchalarini ko'paytirish, yangi zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz, kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash orqali doimiy daromad manbalariga ega bo'lishlariga ko'maklashish darkor. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jihatdan baquvvat mamlakatlarda ham aholining kambag'al qatlami bo'lishi, ya'ni jamiyatda moddiy jihatdan tabaqalanish kuzatilishi mumkin. Iqtisodiy o'sish sur'ati yaxshi bo'lib, aholisining kambag'allik darajasi o'zgarmaydigan mamlakatlar ham bor. Bu odatda aholisi tez ko'payib, iqtisodiy o'sishi faqat ayrim sohalarda bo'layotgan davlatlarda kuzatiladi. Boy mamlakatlar aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirib, masalani ma'lum darajada yechishi

mumkin. Biroq bu masalaning to'liq yechimi emas. O'zbekistonda ta'lim sifatini tubdan radikal darajada ko'tarish lozim. Milliy iqtisodiyotda katta resurslar sarfi va xalqimizning mashaqqatli mehnati evaziga yaratilgan tovar va xizmatlarning jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishi uchun ular, birinchidan, sifati yuqori, ikkinchidan esa, narxi arzon bo'lishi kerak (Xitoy tajribasi). Sifati yuqori, lekin narxi arzon raqobatbardosh mahsulotni faqat sifatli mehnat bilan yaratish mumkin. Sifatsiz mehnat bilan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida o'ylash – bulutsiz musaffo osmondan yomg'ir yog'ishiga umidvor bo'lishdek ma'nosiz. Qadimdan bizga meros qolgan naqlda "Shayxda hunar bo'lmasa machit ham torlik qiladi" deyilgan. Qimmatbaho resurslardan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, demak, mamlakatda ko'plab yangi ish o'rinlari barpo etish, mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning eng samarali yo'li – xalqimizning hunarini oshirish, iqtisodiyotda band bo'lganlarning malakasini, bilim saviyasini, kreativ qobiliyatini rivojlantirishdir. Xalqimizda bunday noyob fazilatlarni shakllantirishda ta'limning roli benihoya katta. To'g'ri, keyingi yillarda davlatimiz rahbari, O'zbekiston hukumati ta'limni rivojlantirish borasida keng ko'lamli juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta'lim sohasida ko'proq miqdor o'zgarishlar sifatida natija bermoqda. O'zbekiston ravnaqi uchun aynan sifat o'zgarishlar juda muhim.

Mazkur mavzu doirasida ta'limning barcha murakkab muammolarini yoritish imkoni mavjud emas. Lekin, lo'nda qilib ifodalaganda, mamlakatda ta'limning shunday modeli yaratilishi kerakki, u butun xalqning asosiy diqqat-e'tiborini ta'limga, butun kuch-g'ayratini uni tubdan yaxshilashga yo'naltirsin. Nazarimizda, bu noyob model xalqimizning qonida azal-azaldan mustahkam joylashgan, buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga va uni mamlakatimizni nafaqat mehnat migratsiyasi illatlaridan xolos etishga, balki jonajon O'zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmog'i lozim. Sifatli ta'lim O'zbekistonni katta taraqqiyotning ravon yo'liga olib chiqishning eng kam xarajat va eng qisqa yo'lidir.

Prezidentimiz ko'tarib chiqqan O'zbekistonni yanada rivojlantirish, uni rivojlangan 50 ta mamlakat qatoridan o'rin olishiga erishish, xalqning hayot farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish, ta'lim sifatini takomillashtirish, kambag'allikka barham berish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi tashabbuslarining hayotga tadbqiq etishning faol ishtirokchilari bo'laylik. Ana shundagina hamyurtlarimizning o'zining jonajon vataniga qaytishiga ko'maklashishda hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Barchamiz birgalikda, bir tan birjon bo'lib harakat qilsak, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning ravon yo'liga boshlab chiqishimiz muqarrar. O'zbekiston

2030-yilga borib nafaqat taraqqiy etgan 50 ta mamlakat safiga kirishga erishadi, balki 2040-yillarga borib kuchli 20 talik mamlakat safidan munosib o'rin egallashi mumkin bo'ladi. Shundagina biz o'tmishda Movarunnahrdek qudratli davlatni shakllantirgan buyuk avlod-ajdodlarimizning sha'niga munosib ish tutgan bo'lamiz, ularning ruhi poklarini shod aylab, arvohlarining madadini olish baxtiga erishamiz. Buning uchun avvalo mehnat migrantlari muammosi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim, bugungi kun va kelajak nuqtayi nazaridan o'z yechimini kutayotgan markaziy masalalaridan biri sifatida qaralmog'i lozim. Ushbu masala davlat rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlari, ilmu-fan ahlining, keng jamoatchilik va o'z-o'zini boshqarish organlarining doimiy diqqat markazida bo'lmog'i shart. Bu borada davlatimizning ishchi kuchi eksportiga yo'naltirilgan harakatlar strategiyasi va "yo'l xaritasi" ishlab chiqilmog'i va tadrijiy ravishda amaliy hayotga tatbiq etilishi lozim. Bizning talqinimizcha, maktablarda moliyaviy savodxonlik va psixologiya fanlarini maktab dasturiga kiritish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mahallabay ishlash tizimi va hokim yordamchilari faoliyatining natijasi samarali bo'lishi uchun har bir mahalla xususiyatini to'g'ri baholash va aholiga ish o'rgatish maqsadida tajribali marketolog, tadbirkorlar yordamidan foydalanganimiz ma'qul.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch." — T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Abdurahmonov Q.X. "Iqtisodiyot nazariyasi." — T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2020.
3. G'ulomov S.S. "Makroiqtisodiyot." — T.: "Fan va texnologiya", 2019.
4. Islomov Z.I. "O'zbekiston iqtisodiyoti: rivojlanish bosqichlari va istiqbollari." — T.: "Iqtisodiyot", 2018.
5. Yusupov M.M. "Kambag'allikni kamaytirishning iqtisodiy asoslari." — T.: "Iqtisodiyot", 2021.
6. Xodiev B.M. "Bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlikni ta'minlash." — T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017.
7. Abdullaeva N.S. "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari." — T.: "Ilm ziyo", 2020.
8. Raximov T.A. "O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi." — T.: "Fan", 2016.
9. Toshboev S.T. "Iqtisodiy o'sish va kambag'allik muammolari." — T.: "IQTISODIYOT", 2021.
10. Ortiqxo'jayev J.Sh. "Tadbirkorlik va uning rivojlanish mexanizmlari." — T.: "Iqtisodiyot", 2019.